



XALQARO DOIRADA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING DOLZARBLIGI.

Aminova Gulnoza Xakimovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti doktoranti.

Oribjonova Sevara Zuhridin qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy universiteti 4- kurs talabasi.

ANOTATSIYA Ushbu maqolada xalqaro korrupsiya va unga qarshi kurashning ustuvor vazifalari shuningdek yechimlari masalalarini taxlil qilingan.

Kalit so'zlari: Xalqaro strategiya, poraxo'rlik, uyishgan jinoyatchili, mansabni suistemol qilish.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются приоритетные задачи и пути решения международной коррупции и борьбы с ней.

Ключевые слова: Международная стратегия, взяточничество, организованная преступность, злоупотребление служебным положением.

ANNOTATION. This article analyzes international corruption and the priority tasks and solutions for combating it.

Keywords: International strategy, bribery, organized crime, abuse of power.

Kirish; Bugungi kunda korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelishi mumkun. Korrupsiya so'ngi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida xalqaro davlatlar orasida keng muhokama qilinayotgan, shuningdek dolzarb mavzulardan biridir. Takidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur jinoyat davlatlarning turli sohalarida hususan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'daniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohatlariga, hamda xalqaro maydondagi imiji



va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hususan korrupsiyaning hayotning har jabhasida tarqalib borishi shuningdek xalqaro miqyosdagi muammo ekanlig haqida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloni oldini olmasak haqiqiyishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi” . Darhaqiqat, dunyoda hech bir davlat korrupsiyaga qarshi samarali mexanizimlarni yaratmay turib, unga qarshi kurashishning unga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini shakillantirmay turib' iqtisodiy iqtisodiy taraqqiyotning yuqori cho'qqisiga chiqib bo'lmaydi. Shu boisdan, utgan yillar davomida xalqaro hamjamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator xalqaro shartnomalar qabul qilinib, bu borada xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro miqyosda qabul qilingan va davlat hizmati sifatini ko'tarish hamda davlat hizmatlarini fuqarolar oldida masuliyatini oshirish va ahloqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro hujjatlarning qo'shilishi, ularga amal qilish har qanday davlat uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashishda turli davlatlar milliy qonunchiligini umumiy yondashuvini birhillashtirish xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida jahon hamjamiyatining ushbu jinoyatga qarshi birgalikdagi harakatlarini samaraliy tashkil qilish, tasirchan mexanizimlarni tshkil etish va iqtisodiy rivojlanish yo'lida bo'lgandavlatlarning milliy qonunchiligini takomillashtirish endilikda muhim vazifalardan biridir. Xalqaro doirada korrupsiyaga qarshi kurashish harakatlarida BMT va Yevropa Ittifoqining o'rnini alohida takidlash lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish Yevropa Ittifoqi xavfsizligining taminlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan.

Xalqaro doiradagi korrupsiyaga qarshi kurashish harakatlari, xususan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar iqtisodiy jinoyatchilik uyishgan jinoyatchilik, daromadlarni yuvish, odam savdosi, qurol- yarog' va narkotiklar terrorizm bilan



bir qatorda barqarorlikning jiddiy taxdidi ekanligi huquqiy hujjatlarda e'tirof etilgan. Bugungi kunga kelib korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat boshqaruvidagi malumotlarning jamoatchilik uchun ochiqligi uning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Bundan ko'rinib turibdiki korrupsiya davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf – xatarlardan biri hisoblanadi. Bugungi davirda hech bir davlat ushbu xatardan holi emas. Birlashkan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturida jahon iqtisodiyoti aynan korrupsiya holatlari tufayli yiliga 2.6 trillion AQSH dollari miqdorida mablag' yo'qotilayotganini jamiyat taraqqiyotining enh xavfli kushandasiga aylangan bu illatga qarshi faqat birgalikda kurash olib borishgina kutilgan samara berishi takidlangan.

Shubhasiz davlat hizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab- mavqeyini suistemol qilish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi davlat hokimyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga, natijada amaldagi hokimyatga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, muayyan davlatda korrupsiyaning rivojlanishi o'sha davlatning iqtisodiy- ma'naviy tanazuliga, xalqaro maydondagi obro' – e'tiborining susayishiga olib keladi. Jahon xamjamiyatida turli taraqqiyot dasturlari bo'yicha hamkorlik asosida qator xalqaro tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shulardan biri Iqtisodiy Xamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti Yevropadagi davlatlar birlashmasi xalqaro tashkilot xisoblanadi, davlat va jamiyat hayotining turli jabhalari, xususan iqtisodiyot, moliya, davlat boshqaruvi sohalari bo'yicha xamkorlik asosida taraqqiyotni maqsad qilgan. Mazkur halqaro tashkilot 1948- yilda AQSH tashabbusi bilan yevropani tiklash bo'yicha Amerika iqtisodiy va moliyaviy yordami asosida tashlil etilgan. Tashkilotning doimiy vakillari sifatida: Avstraliya, Avstriya, AQSH, Belgiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Norvegiya, Turkiya, Fransiya, Finlyandiya, SHvesiya, Yaponiya va Yangi Zelandiya kabi davlatlarni ko'rsatish mumkin. Rasmiy hamjamiyatdan tashkilot shartnomani imzolagan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni taminlash, iqtisodiyotni



yuksaltirish va aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni saqlanishini nazarda tutadi. Tashkilot azo davlatlari rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatish, davlatlar mintaqasida a'zo davlatlar siyosatini muvofiqlashtirish yo'li bilan iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadilar. Shuningdek ushbu tashkilot rejasining asosiy maqsadi – mintaqada korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tajriba almashish, o'zaro o'rganish va ilg'or tajribalarni rivojlantirishni qo'llab – quvvatlash ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shundan kelib chiqqan holda turli konfessiya va seminarlar tashkil etish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida qayt etib o'tilgandek, faoliyat yo'nalishlari turli masalalarga kqaratilgan faoliyat yo'nalishlarining asosiy yo'nalishlarini taxlil qilgan holda aytish mumkinki, umuiy manoda Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari dunyoda korrupsiyalashgan mintaqalar qatoriga kiradi. Korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi mahsus davlat siyosatining mavjudligi muhum ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlat siyosati strategiyasi yoki dastur ko'rinishida qabul qilinib, aniq belgilangan ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish choralarida jamoatchilikning ishtiroki, faoliyatiga nodavlat – notijorat tashkilotlarini keng jalb etish masalalari amalga oshiriladi. Bundan ko'rinadiki korrupsiya bilan bog'liq muammolar azaldan mavjud bo'lishiga qaramasdan uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy harakteriga so'ngi yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida e'tibor qaratila boshladi. Unga ko'ra “ Korrupsiya davlat yoki hususiy sektorda muayyan majburiyatlarni bajarish topshirilgan va ularga maqomi bo'yicha davlat lavozimidagi shaxs, xususiy hodim, mustaqil agent yoki boshqa turdagi munosabatlar yuklangan majburiyatlarning buzulishiga olib keladigan va o'zi hamda boshqalar uchun istalgan noqonuniy foyda olish maqsadiga ega bo'lish shaxslarning poraxo'rliги hamda har qanday hulq atvorni o'zida aks ettiradi.

Yuzaki qaraganda korrupsiya xulq – atvor, o'z oqibatlariga ko'ra huquqiy va iqtisodiy muammo sifatida qabul qilinadi, biroq uning kelib chiqishi psixalogiyasi bilan ham chambarchas bog'liq. Real turmushimizda davlat va



nodavlat tashkilotlarining barcha xodimlari ham o'z foydasini ko'zlab muayyan noqonuniy harakatlariga qo'l urmaydilar. Demakki, bunday umuminsoniy qadiryatlardan og'ish umumqabul qilingan meyorlarni qabul qilmaslik kabi xulq – atvor belgisi mavjud. Shaxslarning xulq- atvor ahloq kategoriyasi bilan bevosita bog'liq. Xulq- atvor jamiyatdagi axloq normalarining shaxsda ifodalanishi orqali namoyon bo'ladi hamda ularning xulqning og'ishi shaxsning axloq no'rmalariga rioya etishi darajasiga bog'liq. Axloq no'rmalari jamiyatning ongida mustahkamlangan bo'lib yurish turish qoidalar, tushunchalar, g'oyalar, baxolar va boshqa masalalar ko'rinishida amal qiladi. Ahloq ijtimoiy normalar turi bo'lib, jamiyat hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi va ijtimoiy baxo berish imkoniga ega bo'ladi.

Korrupsiya hozirgi kunda ko'pqirrali muammo hisoblanib, uni chuqur o'rganish va oldini olish uchun kompleks va tizimli yondashuv' davlat va jamiyat, nazariya va amaliyotning kuchlarini birlashtirish taqozo etadi. Birinchi navbatda korrupsiyaning paydo bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablari paydo bo'lib shu sabablarni o'rganish shu sabablarni davlatchilik rivojlanishining manashu bosqichida rivojlanishi bilan taqqoslash shundan keyin korrupsiyaning kelib chiqishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini yo'qotishga yo'naltirilgan amaliy qadamlarini tashlash va bu illatning oldini olishga qaratilgan turli yo'nalishlardagi profilaktik tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur. Bundan ko'rinadiki hayotning har bir sohasida manfaatlar to'qnashuvi dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lganglobal muammolardan biridir. Ushbu illat harqanday davlat va jamiyatning siyosiy- iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi. Inson huquq – erkinliklarini poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurashish nafaqatmilliy ahamiyatga ega balki, xalqaro miqyosda muammo bo'lib, jahon siyosatining muhum masalalari qatoridan joy olgan.

Xulosa: Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda qonunchilik davlat xizmatlariga ilmiy, ijodiy, va o'qtuvchilik faoliyatidan tashqari, boshqa haq to'lanadigan faoliyatlar bilan shug'ullanishni taqiqlaydi. Manfatlar buzulishining



oldini olish maqsadida real manfaatlar to'qnashuvini choralari imkon qadar tezroq amalga oshirilishi lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishning muhim yo'nalishlaridan biri – bu tadbirkorlikni erkin rivojlanishi, biznesda barcha uchun teng imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratishga to'sqinlik qiluvchi korrupsiya omillari va holatlarini bartaraf etishdir. Korrupsiya nafaqat davlat sektori, balkim xususiy sektor shuningdek xalqaro maydondagi obro'si uchun ham katta g'ov xisoblanadi. Jahon hamjamiyati XXI asrning boshlari korrupsiya harakati bir davlat hududida sodir etilgan jinoyat, balki barcha davlatlarning iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi muammo ekanligini anglab korrupsiyaga qarshi universal xalqaro hujjat ishlab chiqish zaruriyati paydo bulganligi to'g'risida, shuningdek xorijiy davlatlarning bugungu kungacha qo'llagan korrupsiyaga qarshi tizimli va foydalik usullarini boshqa davlatlar o'rtasida ham keng doirada qo'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Hususan O'zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, davlat o'rganlari faoliyatining ustuvor vazifalaridan biri xisoblanadi. Ko'pchilik mutaxassislar korrupsiyaning sabablari siyosiy institutlarning mukammal emasligiga bog'liq deb hisoblashadi.

Davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish hamda modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvi sohasida liberallashtirish sharoitida davlat xizmatchilari tomonidan poraxo'rlik, mansab mavqeini suistemol qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi davlat hokimyatining obro'sizlanishiga, davlatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetishiga sabab bo'ladi. Shuningdek korrupsiyaning rivojlanishi Davlat tomonida olib borilayotgan islohatlar natijalari sababli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois davlat tomonidan korrupsiyaga qarshi faol huquiy siyosat yuritilib, uning oldini olishga qaratilgan zarur normativ- huquiy hujjatlar qabul qilinmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma/ A. Xalilov, U Muhammadiev, K . Jo'raev va boshqalar - T, 2015. 86.b.
2. Kim. Pak Sok Davlat boshqaruvida inson resurslari 2018 – yil nigohida. Ministry of Personnel Management. 2018 . – 3.b.
3. Birlashkan Millatlar Tashkiloti Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi – New – York, 2013 – yil 31- oktabr.
4. <http://kyzmet.gov.kz>.
5. Manba: www.qomus.info/encyclopedia/cat-j/jamiyat-uz/